




Tashqi savdo

(dastlabki ma'lumot)

2018 yil yanvar

Viloyatimizda tashqi savdo aylanmasi 2018 yil yanvar oyida 48,7 mln. AQSh dollarini, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 193,8 foizni, shu jumladan eksport 3,5 mln. AQSh dollarini o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan 58,8 foizni tashkil etdi va import 45,2 mln. AQSh dollarini o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan 235,5 foizni tashkil qildi. Tashqi savdo aylanmasi saldosı -41,7 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.

Tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 63,5 foizni, boshqa xorijiy davlatlarning ulushi 36,5 foizni, eksport hajmida MDH davlatlarining ulushi 46,5 foizni, boshqa xorijiy davlatlarning ulushi esa 53,5 foizni, import hajmining MDH davlatlaridagi ulushi 64,8 foizni, boshqa xorijiy davlatlardagi ulushi esa 35,2 foizni tashkil qildi.




Tashqi savdo

Eksport tarkibida xizmatlar 20,4 foizga, oziq-ovqat mahsulotlari esa 17 martaga o'sdi.

Import tarkibining umumiy hajmidan 74,8 foizni mashina va asbob-uskunalar va 14,6 foizini kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar tashkil qiladi.

Import tarkibi, foizda



- oziq-ovqat mahsulotlari
- kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar
- energiya manbaalari va neft mahsulotlari
- qora va rangli metallar
- mashina va asbob-uskunalar
- xizmatlar
- boshqalar



Tashqi savdo

2018 yil yanvar oyida tashqi savdo aylanmasi saldosini $-41,7$ mln.AQSh dollari tashkil qildi, shundan MDH davlatlari bilan $-27,7$ mln.AQSh dollari va boshqa davlatlar bilan $-14,0$ mln.AQSh dollari tashkil etdi.


2018 yilning yanvar oyida viloyatning tashqi savdo aylanmasi quyidagi ma'lumotlarda tavsiflanadi:

	ming. AQSh dollari	o'tgan yilga nisbatan foizda	umumiy hajmga nisbatan foizda
Eksport	3486,3	58,8	100,0
paxta tolasi	-	-	-
oziq-ovqat mahsulotlari	1604,5	1717,9	46,0
kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar	32,6	6,4	0,9
energiya manbaalari va neft mahsulotlari	9,0	-	0,3
qora va rangli metallar	162,1	-	4,6
mashina va asbob-uskunalar	-	-	-
xizmatlar	173,5	120,4	5,0
boshqalar	1504,6	44,7	43,2
Import	45195,3	235,5	100,0
oziq-ovqat mahsulotlari	205,2	95,3	0,5
kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar	6585,4	109,9	14,6
energiya manbaalari va neft mahsulotlari	275,0	37,3	0,6
qora va rangli metallar	1948,0	181,6	4,3
mashina va asbob-uskunalar	33816,0	343,5	74,8
xizmatlar	319,1	91,2	0,7
boshqalar	2046,6	209,3	4,5

Tashqi savdo


2018 yil yanvar oyida viloyat tashqi savdo aylanmasida eng katta ulushga ega bo'lgan mamlakatlar, foizda

MDH davlatlari orasida Rossiya, Afg'oniston, davlatlari tashqi savdo aylanmasida asosiy xamkorlar hisoblanib, ularning jami tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 21,5 foizni tashkil qildi, boshqa davlatlar orasida Belarussiya, Xitoy, AQSh, Germaniya, Turkiya, Koreya Respublikasi, Ispaniya davlatlari hisoblanadi va ularning ulushi 69,2 foizni tashkil qildi.




Jami eksport-import hajmida eng katta ulushga ega bo'lgan mamlakatlar, foizda

Eksport



Import



Tashqi savdo

Viloyatimizda meva-sabzavot mahsulotlari va ularni qayta ishlash eksport xajmi 495,2 ming. AQSh dollarini tashkil qildi, yoki o'tgan yilning shu davriga nisbatan 5 martaga oshdi. Meva-sabzavot mahsulotlari va ularni qayta ishlash eksport hajmida 14,2 foizni tashkil etmoqda. Shundan Navbaxor tumani 170,2 ming AQSH dollarini, Nurota tumani 269,9 ming AQSH dollarini tashkil etmoqda.

***Eksport tarkibining umumiy hajmidan
14,2 foizni meva-sabzavot mahsulotlari va ularni
qayta ishlash tashkil
qiladi***

